



26.01.2022 даги

НИБ хузуридаги куриклаш бошқармаси ва Шофиркон туман МТБ ўртасида 2705763,00 сўм умумий суммага тузилган 18 - сонли шартномага

**ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ\***

Боб 251  
Шахсий газна ҳисобварақ 100022860062587091100251033

2022 й. ойлар номи.	Харажатлар тури** (бюджет таснифининг тегишли коди)			сўмда
	4293000			Жами
Январь	2 705 763,00			2 705 763,00
Февраль				
Март				
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
<b>Жами йил бўйича</b>	<b>2 705 763,00</b>			<b>2 705 763,00</b>

Жами 2705763,00 сўм

Икки миллион етти юз беш минг етти юз олтиш уч сўм 00  
тийин  
сумма сўз билан

Юқоридаги кўрсатилган суммадан 2705763,00 сўм ёки 100,00%\*\*\* шартноманинг умумий суммасидан 100 % \*\*\*2022 январь ойида тўланиши лозим.

(\*) — бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан гзначилик бўлинмасига икки нусхада тақдим этилади;

(\*\*) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(\*\*\*) — Юқоридаги кўрсатилган суммадан ойига \_\_\_\_\_% жорий ойнинг \_\_\_\_\_ санасигача ҳар ойда олдиндан тўланиши лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар кўрсатиш, алоқа хизматлари ва қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳар ой доимий равишда товарлар (ишлар, хизматлар) етказиб бериш шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш ҳолларида тўлдирилади).

Буюртмачи раҳбари

М.У



(имзо)

Каримов Равшан Раимович  
Ф.И.Ш.

Буюртмачи бош бухгалтери

(имзо)

Дустов Жавлон Фармонович  
Ф.И.Ш.

Гзначилик бўлинмасининг ходими қабул қилди

(имзо)

Буюртмачи ходими қабул қилди

(имзо)

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ й.

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ й.

**Obyektning Texnik qo'riqlash punkti (TQP) orqali  
qo'riqlash shartnomasi.**

«26» subap 2022 yil.

JSH/ 18 -son

Buxoro shaxri.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Buxoro viloyat Qo'riqlash boshqarmasi nomidan Nizomi asosida faoliyat yurituvchi, boshqarma boshlig'i **Sh.A.Jumaev** (keyingi o'rinlarda «**Ijrochi**» deb yuritiladi) bir tomondan, Shofirkon tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri **R.Karimov** (keyingi o'rinlarda «**Buyurtmachi**» deb yuritiladi) ikkinchi tomondan, birgalikda «**Tomonlar**» deb yuritiladi, mazkur Shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

**I bob. Shartnoma predmeti**

1. **Ijrochi** texnik qo'riqlash markazi (TQM), mulkni qo'riqlash xizmatini ko'rsatish majburiyatini, **Buyurtmachi** esa mazkur Shartnoma shartlariga asosan o'z vaqtida ko'rsatilgan xizmat uchun to'lovlarni amalga oshirish majburiyatini oladi.

**II bob. Umumiy shartlar**

2. **Buyurtmachi**, Shofirkon tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi tasarrufida bo'lgan **5,6,7,20-sonli MTMlarni** qo'riqlashga topshiradi, **Ijrochi** esa ushbu ob'ektni Shofirkon tuman **Qo'riqlash Bo'limi Texnik Qo'riqlash Markazi** orqali quyidagi tartibda;

- Shofirkon tuman **Qo'riqlash Bo'limi Texnik Qo'riqlash Markazi** orqali Shofirkon tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi tasarrufida bo'lgan **5,6,7,20-sonli MTMlarni** xar birini 3 soatdan (soat 22:00 dan 01:00 gacha), qo'riqlash uchun qabul qiladi.

3. Ob'ektni texnik qo'riqlash vositalari bilan jihozlash va ta'mirlash **Buyurtmachi** tomonidan amalga oshiriladi. Ob'ektni yong'indan qo'riqlash va xavf-xatar signalizatsiyasi bilan jihozlash chizmasi mazkur shartnomaga ilova qilinadi hamda uning ajralmas qismi hisoblanadi.

4. Ob'ektning texnik mustahkamligi to'g'risidagi, qo'riqlash va yong'indan ogohlantiruvchi texnik (QYoOT) vositalari bilan jihozlangan joylar, kod bilan mahkamlanadigan moslamalar va boshqa ma'lumotlar mazkur shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan ilova va tekshiruv dalolatnomasida ko'rsatiladi.

**III bob. To'lovlarni amalga oshirish.**

5. Mazkur Shartnoma asosida ko'rsatiladigan xizmatlar narxi belgilangan tariflarga mos holda quyidagicha hisoblanadi:  
A) Shartnoma tuzilgan vaqtda belgilangan ta'riflarga mos holda **2705763** (ikki million yetti yuz besh ming yetti yuz oltmish uch) so'mni, yoki Shartnomaning umumiy baxosi **2705763** (ikki million yetti yuz besh ming yetti yuz oltmish uch) so'mni tashkil qiladi. Qo'riqlash xizmati uchun hisob-kitoblar, mazkur shartnomaning grafigi asosida budjetdan va budjetdan tashqari ajratilgan mablag'lar asosida to'lanadi.

Y a n v a r	F e v r a l	Ma rt	A pr el	M a y	Iy un	Iy ul  y ul	A v g u s t	S e n t a b r	O k t a b r	N o y a b r	D e k a b r	Jami 2022-yil(yanvar oyi) uchun
2												2 705 763 so'm

5.1. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Byudjet tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan shartnomalari majburiy tartibda G'aznachilikdan ro'yxatga ro'yxatga olingandan so'ng kuchga kiradi.

6. **Ijrochining** xizmatlari uchun to'lovlarga o'zgartirishlar kiritish, qonun hujjatlariga muvofiq ushbu xizmatlar turiga yangi ta'riflar tasdiqlangan hollarda qayta ko'rib chiqiladi.
7. **Buyurtmachi** ko'rsatilgan xizmatlar uchun oylik to'lovning 100 foizgacha miqdoridagi avans to'lovini, keyingi oy boshlanishidan 10 kun oldin amalga oshiradi.
8. **Buyurtmachi** mazkur Shartnomaning 5-bandida ko'rsatilgan oylik to'lovni (avans to'lovini) o'z vaqtida to'lamasa, **Ijrochi, Buyurtmachiga** akseptsiz to'lov talabnomasini taqdim qilishga haqlidir.
9. Mazkur Shartnoma bekor qilinganda hamda har oyning yakuni bilan, **Ijrochi Buyurtmachi** bilan olib borilgan to'lovlar bo'yicha, qayta hisob-kitobni amalga oshirishi zarur (ya'ni taqqoslash dalolatnomasi tuzilishi).

#### IV bob. Tomonlarning huquq va majburiyatlari.

##### 10. «Buyurtmachi» ning huquq va majburiyatlari.

- a) Ob'ektni TQM orqali qo'riqqa topshirish uchun, soz holdagi telefon tarmog'ini ajratadi.
- b) «Ijrochi»ga topshiriladigan ob'ektni texnik mustahkamligini ta'minlash maqsadida, tekshiruv dalolatnomasi bo'yicha uni me'yoriy talablar asosida jihazlaydi.
- v) Ob'ektni «Ijrochi»ga topshirish va qabul qilish, kalitlarni saqlash va ob'ektni ochib ko'zdan kechirish uchun javobgar shaxsni tayinlaydi.
- g) Ob'ektning kaliti yo'qolganida uni boshqasiga almashtirganida yoki uning butligi buzilganligini aniqlaganida, zudlik bilan «Ijrochi»ga xabar beradi.
- d) Begona shaxslarga qo'riqlash va signalizatsiya tizimini va pult raqamini o'zlashtirmasligi uchun ularni oshkor qilmaydi.
- y) qo'riqlash signalizatsiya vositalaridan foydalanish qoidalariga qat'iy rioya qiladi, ob'ektni blokirovka sxemasiga o'zgartirishlar kiritmaydi, o'z ixtiyori bilan signalizatsiya vositalarini almashtirmaydi, «ijrochi» ni yuzaga kelgan kamchiliklar yuzasidan o'z vaqtida xabardor qiladi.
- j) Ob'ektni «Ijrochi» ga topshirishdan oldin eshik, deraza, tuynuklarni mahkamlaydi, ularni doimiy ravishda soz holda saqlanishini ta'minlaydi.
- z) Ob'ektdagi QYOT vositalari ishdan chiqqanida yoki foydalanish muddati o'tganida ularni qayta ta'mirlash uchun, TQMni modernizatsiyalashtirilgan qo'riqlash sistemasiga o'tkazilishi munosabati bilan ob'ektni zamonaviy QYOT vositalari bilan almashtirish ishlarinio'z hisobidan amalga oshiradi.
- i) QYOT vositalari ulangan elektr va telefon tarmoqlarini o'z vaqtida ta'mirlash choralarini ko'radi.
- v) Ob'ektni mazkur shartnomada ko'rsatilgan tartibda oldindan va o'z muddatida TQM kuzatuviga topshiradi.
- k) Qo'riqlanayotgan ob'ekt va uning perimetrini kerakli yoritish moslamalari bilan jihazlab, TQM naryadlariga tungi paytda mumkin darajada ko'rinishni ta'minlaydi.
- l) Qo'riqlanadigan ob'ektni toifasiga qarab devori, tomi, derazalari va eshiklarini texnik jihatdan mustahkamligini ta'minlaydi.
- m) Qo'riqlanadigan ob'ektda yong'in xavfsizligi qoidalariga amal kilib, o'z xisobidan yongin xavfsizligi burchagini tashkil qiladi va ob'ektda yong'in xavfsizligi bo'yicha javobgar shaxs tayinlaydi.
- n) Har chorakda tomonlarning mas'ul vakillari ishtirokida ob'ektning texnik mustahkamligi, QYOT vositalari bilan jihazlanganligini tekshirilib, dalolatnoma tuziladi, tekshiruv jarayonida aniqlangan kamchiliklarni «Buyurtmachi» belgilangan muddatida bartaraf qilib, «Ijrochi»ga axborot beradi. Mazkur dalolatnoma shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.
- o) Ob'ektni qo'riqlanishini takomillashtirish, moddiy-tovar boyliklarni saqlanishi uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratadi va «Ijrochi»ga o'zining vazifalarini ijro etishi uchun ko'maklashadi.
- p) Ob'ekt hududida ta'mirlash ishlari yoki uni ijraga topshirish, ob'ekt joyini o'zgartirish (o'sha ma'muriy binoning ichida), yangisini vujudga kelishi (o'sha ma'muriy binoning ichida), qo'shimcha QYOT vositalari bilan jihazlanishi lozim bo'lgan taqdirda, «Ijrochi»ni 30 kun avval yozma ravishda ogohlantiradi.
- r) «Ijrochi» tomonidan vakolat berilmagan shaxslarga, QYOT vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazishga ruxsat bermaydi.
- s) Ob'ektni har kuni TQMga topshirishdan kamida 3 soat oldin QYOT vositalarini sozligini, nazorat tariqasida tekshiradi, nosozlik aniqlanganda zudlik bilan xizmat ko'rsatadigan elektr ta'mirlovchini chaqiradi va bu borada «Ijrochi» ga xabar beradi.

t) Ob'ektda ish vaqti tugaganidan so'ng, elektrmoslamalar va boshqa yong'in o'choqlarini yoqib qo'yilishiga yo'l qo'ymaydi. Lozim bo'lganda, qo'riqlash uchun to'sqinlik qiladigan va uni zudlik bilan bartaraf qilish iloji bo'lmagan noxush holatlar mavjud bo'lsa, mulkning saqlanishi uchun to'liq javobgarlik o'z zimmasida qoladi.

#### 11. «Ijrochi» ning huquq va majburiyatlari.

- a) TQM qo'rig'iga topshiriladigan ob'ektning texnik mustahkamligini tekshirib, uning QYOT vositalari bilan jihozlanishiga qarab dalolatnoma tuzadi.
- b) Ob'ektning xavfsizligi yuzasidan QYOT vositalarini majburiy jihozlanish joyini belgilaydi.
- v) «Buyurtmachi»ga ob'ektning texnik mustahkam bo'lmagan joylariga QYOT vositalari bilan jihozlashni taklif etadi, bu taklif «Buyurtmachi» tomonidan bajarilmagan taqdirda bu haqida dalolatnoma tuzadi. Ushbu dalolatnoma shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.
- g) Ob'ektni «Buyurtmachi» hisobidan QYOT vositalari bilan to'liq jihozlaydi, uning ishlashini Buyurtmachiga o'rgatadi, telefon aloqasi orqali pultga ulaydi va kerakli bo'lgan pult ma'lumotini taqdim etadi.
- d) O'rnatilgan tartibda ob'ektni qo'riqqa olishda o'rnatilgan tartibda TQMga ulanishi hamda o'z vaqtida THG naryadini tashvish xabari bo'yicha yetib borishini ta'minlaydi.
- y) Ob'ekt qo'riqda bo'lgan vaqtda ob'ektga kirgan shaxsning qo'lga olish chorasini ko'radi.
- j) Har bir tushgan soxta tashvish xabari bo'yicha dalolatnoma tuzadi, lozim bo'lganda «Buyurtmachi»ni chaqirib ob'ektni ochib ko'rikdan o'tkazadi va bu haqida dalolatnoma tuzadi, uning bir nusxasini «Buyurtmachi»ga beradi.
- z) Qo'riqlash xizmati uchun olinadigan tariflar o'zgarganida «Buyurtmachi»ni xabardor qiladi.
- i) Mazkur shartnomani to'xtatish yoki bir tomonlama bekor qilinishi quyidagi hollarda amalga oshiriladi:
  - «Buyurtmachi» 2 oydan oshiq «qo'riqlash» xizmati uchun to'lovlarni to'lamaganligi;
  - har qanday texnik nosozliklar, telefon raqami o'zgarganda, telefon o'chirilganda, TQM joyi o'zgarib ko'chirilganda;
  - «Buyurtmachi» tomonidan shartnoma 10-bandi shartlari bajarilmaganda;
  - ob'ektning texnik mustahkamligi talabga javob bermaganda;
  - Telefon o'chirilganda yoki nosoz bo'lgan holda, elektr manbai o'chirilganda, TQM joyi o'zgarganda, ob'ekt qo'riqqa qabul qilinmaydi, zudlik bilan bu to'g'risida «Buyurtmachi»ni yozma yoki telefon orqali xabardor etadi.

#### V bob. Tomonlarning javobgarligi.

12. Mazkur Shartnomaning 11-bandida ko'rsatilgan summaning **Buyurtmachi** tomonidan o'z vaqtida to'lanmaganligi holatida **Buyurtmachi Ijrochiga** har bir kechiktirilgan kun uchun to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi,
13. Ijrochining xodimi postda va patrul yo'nalishlarida bo'lmaganida Ijrochi Buyurtmachiga har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorda penya to'laydi, biroq bunda ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizdan oshib ketmasligi lozim.
14. Ijrochi mazkur Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini lozim darajada bajarmaganligi natijasida Buyurtmachiga yetkazilgan zarar uchun moddiy javobgar bo'ladi. Ijrochining aybi bilan zarar yetkazilganligi aniqlangan hollarda zarar to'liq miqdorda qoplanadi. Ijrochining aybi bilan yetkazilgan zararining miqdorini aniqlash uchun tomonlar vakillaridan iborat komissiya tuzilishi mumkin. Bunda, zarar miqdori tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilib, komissiya a'zolari tomonidan tasdiqlanadi. Nizo mavjud bo'lgan taqdirda zarar miqdori sudning qarori bilan aniqlanadi.
15. Quyidagi holatlarda yetkazilgan moddiy-zararlar uchun «qo'riqlash» javobgar hisoblanmaydi:
  - a) tabiiy ofatlar oqibatida keltirilgan mulkiy zararlar uchun;
  - b) o'g'rilik yoki bosqinchilik yo'li bilan amalga oshirilgan harakatlarda pul o'g'irlanishi, qo'riqlanayotgan xonalarda Buyurtmachi qoldirmasligi kerak bo'lgan, belgilangan summadan oshib ketuvchi pul vositalari qoldirilib ketganida, hamda pul vositalari polda o'rnatilgan seyf yoki metall jovonda saqlanmagan hollarda qo'rilgan hollarda;
  - v) Xo'jalik organini ishchilarining shaxsiy mulki qo'riqlanayotgan xonada qolib ketganida;
  - g) Jinoyatchi tomonidan qo'riqlanayotgan xona ichida keltirilgan zarar uchun, agarda bunda jinoyatchi ushbu xonaga uni yopilishidan oldin kirgan bo'lsa va xonani qo'riqlanmaydigan vaqtda tark etgan bo'lsa;
  - d) pul boyliklarni belgilangan joyda saqlanmagan holatlarda ularni O'g'irlash yoki tajovuz sodir bo'lganda,
  - y) «Buyurtmachi» tomonidan signalizatsiya vositalari belgilangan vaqtda ishga tushirilmaganligi, ob'ektni qo'riqlashga topshirilmaganligi, yoki signalizatsiyaning nosozligi haqida «qo'riqlash»ga xabar berilmaganligi natijasida o'g'irlash, bosqinchilik yoki tajovuz yo'li bilan tovar-moddiy boyliklarga ziyon yetkazilganda,

yoki ikki tomonlama tuzilgan dalolatnomada qo'riqlanayotgan ob'ektni texnik mustahkamligini oshirish bo'yicha talablar bajarilmasligi natijasida, tovar-moddiy boylklarni o'g'irlanishiga sharoit yaratilganda.

#### **VI bob. Korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar**

6.1. Shartnomaning taraflari, ular tomonidan jalb qilinadigan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tanlanishi lozim.

6.2. Shartnomaning tarafi va u tomonidan jalb qilingan shaxslar (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarga rioya etilmaganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentyabr sanasidagi PF-6313-son farmonidan kelib chiqib ikkinchi taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni qoplab berishni talab qilishga haqli bo'ladi.

#### **VII bob. Nizolarni hal qilish tartibi.**

16. Mazkur shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish vaqtida taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar, shuningdek yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi nizolar qonun hujjatlari belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

#### **VIII bob. Fors-major.**

17. Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar ushbu bajarmaslik Shartnoma tuzilgandan keyin paydo bo'lgan, yengib bo'lmaydigan kuch, ya'ni favqulodda va muayyan sharoitlarda oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar (fors-major) oqibati hisoblansa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

18. Yengib bo'lmaydigan kuch holatiga havola qiluvchi Tomon boshqa Tomonni bunday holatlar boshlanganligi va tamom bo'lganligi to'g'risida ikki kun ichida yozma shaklda xabardor qilishi shart. Ushbu muddat ichida xabar bermagan Tomon mazkur Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilish asosi sifatida ko'rsatishga haqli emas.

19. Fors-major holatlariga suv toshqinlari, yer qimirlashi va boshqa tabiiy halokatlar, shuningdek epidemiyalar, yong'inlar, portlashlar, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining mazkur Shartnoma ijrosiga bevosita ta'sir ko'rsatgan qarorlari kiradi.

20. Mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan davrga mutanosib ravishda kechiktiriladi. Agarda fors-major uch oy davom etsa Tomonlar mazkur Shartnomani bir tomonlama bekor qilishga haqli.

#### **IX bob. Yakuniy qoidalar.**

21. Mazkur Shartnoma **Buyurtmachi** tomonidan tekshirish dalolatnomasida ko'zda tutilgan barcha takliflar va tavsiyalar bajarilib, tomonlar imzolangan keyin kuchga kiradi. Mazkur shartnoma **2022-yilning 31-dekabr kunigacha** amal qiladi.

22. G'aznachilikdan ro'yxatga olinishi shartligi va faqat g'aznachilik tomonidan tasdiqlangandan so'ng amalga oshiriladi.

23. Mazkur Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shaklda tuzilganda hamda **Buyurtmachi** va **Ijrochining** vakillari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiydir.

24. **Buyurtmachi** ob'ektni qo'riqlashni rad qilish yoki mazkur Shartnomani bekor qilish (**bir yil muddat to'liq o'tgandan so'ng**) to'g'risida **Ijrochiga bir oy** oldin yozma ravishda ma'lum qiladi.

25. **Buyurtmachi** mazkur Shartnomani bekor qilish haqida **Ijrochiga** Shartnoma muddati tugashidan **30 kun** oldin ma'lum qilmasa, xuddi shu shartlarda mazkur **shartnoma muddati yana bir yilga uzaytirilgan hisoblanadi**.

26. **Buyurtmachi** shartnomani muddati tugashidan oldin voz kechsa, **Buyurtmachi** uch kun muddat ichida qo'riqlash xizmatlarini bekor qilishga bog'liq xarajatlarni qoplash uchun "qo'riqlash"ning hisob raqamiga mablag' o'tkazadi.

27. Ob'ektning xususiyatidan kelib chiqib **Tomonlar** mazkur Shartnomaga, qonun hujjatlariga muvofiq huquq va majburiyatlarini nazarda tutuvchi qo'shimcha bandlar kiritishlari mumkin.

#### **X-bob. Tomonlarning yuridik manzillari va rekvizitlari.**

**"I J R O C H I"**

O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi  
Buxoro viloyati Qo'riqlash boshqarmasi.

Manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko'chasi 10-uy

H.R. 21 596 000 203 976 980 001

MFO: 00017 INN: 202 623 032

Bank nomi: Markaziy bank Buxoro viloyati  
boshqarmasi.

Buxoro viloyati Qo'riqlash

Boshqarmasi boshlig'i

U. Jumaev

Xizmat: 221-30-11

221-30-11

Sa'dullaev



**"B U Y U R T M A C H I"**

Shofirkon tuman Maktabgacha ta'lim  
bo'limi

Manzili: Shofirkon tuman 1-sentyabr ko'chasi

H.R: 100022860062587091100251033

INN: 207266631.

OKONX: 85100

G'aznachilik bo'linmasi nomi: Shofirkon  
tumani bo'yicha G'aznachilik mo'linmasi

G'azna h/r 2340200030100001010

Bank nomi: Markaziy bank Toshkent shahar Bosh  
Boshqarmasi HKKM

MFO: 00014

G'aznachilik bo'linmasi STIRi: 201122919

Rahbar  
M.P



R.Karimov

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA YURIDIK

XULOSA

1.Loyihaning turi: Shartnoma.

2.Loyihaning nomi: "Qo'riqlash xizmati ko'rsatish bo'yicha shartnoma"

Shofirkon tuman maktabgacha ta'lim bo'limi va O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Buxoro viloyat Qo'riqlash boshqarmasi o'rtasidagi qo'riqlash xizmati ko'rsatish bo'yicha shartnoma.

3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Shofirkon tuman maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan 2022-yil 26-yanvar sanasida ishlab chiqilgan va markazga yuridik xulosa uchun taqdim etilgan.

Loyiha tuman maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan taqdim etilgan ilova hujjatlar asosida ko'rib chiqildi.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



A.Nusratov